

ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK DARSLIKLARINING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Toirjonova Nilufar Rustzmjo qizi

Qo‘qon Universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

*Ilmiy maslahatchi: **Abdullayeva Vazira***

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek ma’rifatparvar olimi Abdulla Avloniy tomonidan yozilgan pedagogik darsliklarning didaktik xususiyatlari o‘rganiladi. Muallifning asarlarida aks etgan ta’lim-tarbiya tamoyillari, ularning zamonaviy pedagogik qarashlar bilan uyg‘unligi, shuningdek, darsliklarning shakl va mazmun jihatidan metodik asoslari tahlil qilinadi. Avloniy ijodidagi axloqiy-tarbiyaviy g‘oyalar, milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuvlar va o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiruvchi usullar alohida yoritib beriladi. Tadqiqot Adulla Avloniy merosining bugungi ta’lim jarayoniga qo‘shayotgan hissasini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Abdulla Avloniy, pedagogik darsliklar, didaktika, ta’lim-tarbiya, metodika, milliy qadriyatlar, ma’rifatparvarlik, o‘qitish usullari.

Abstract: This article examines the didactic features of pedagogical textbooks written by the Uzbek enlightener Abdulla Avloni. The principles of education reflected in the author's works, their compatibility with modern pedagogical views, as well as the methodical foundations of textbooks in terms of form and content are analyzed. Ethical and educational ideas, approaches based on national values and methods that increase students' interest in learning are highlighted in Avloni's work. The research aims to reveal the contribution of Adulla Avloni's legacy to today's educational process.

Key words: Abdulla Avloni, pedagogical textbooks, didactics, education, methodology, national values, enlightenment, teaching methods.

Kirish.

Badiiy adabiyot namumalarining didaktik xususiyatlarini aks ettirishda axloqiy-ta’limiy, ilmiy - falsafiy, diniy bilimlar va g‘oyalar badiiy talqin qilinadi. Didaktik adabiyot ildizi xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. G‘arb va Sharq xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar adabiyotida didaktik adabiyot uzoq tarixga ega. O‘zbek mumtoz adabiyotidagi didaktik adabiyotning dastlabki yirik namunalari Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq» dostonlari kabi pand - nasihat ruhidagi asarlar mavjud. Didaktik adabiyotdan ijtimoiy, falsafiy, ilmiy qarashlarni ommalashtirish vositasi sifatida ham foydalanganlar.

Ma’limki, “didaktika” so‘zi ilmiy kitoblarda qadimgi yunon tilidan olinib, “o‘qitish”, “o‘rganish” degan ma‘noni bildirishi to‘grisida ma‘lumotlar mavjud.¹

¹R.A.Mavlonova.N.Rahmonqulov va boshqalar,Umumiy pedaagogika. Toshkent.2018, 69-bet

Mazkur atamani fanga kiritilib, uning nazariyasi haqida ilk bor kitob yaratgan pedagog chexiyalik Yan Amon Komenskiyning behad o'rni katta bo'lganligi pedagogika kitoblarida ko'p marotaba ta'kidlangan. Didaktik adabiyotning ildizi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi.

O'zbek ma'rifatparvarlik harakatining yorqin namoyandalaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniy o'zining ibratli hayoti va boy ijodiy merosi bilan xalqimiz ma'naviy-ma'rifiy hayotida chuqur iz qoldirgan siymolardan biridir. Avloniy nafaqat adib, publitsist va jamiyat arbobi sifatida, balki pedagog, metodist, darslik muallifi sifatida ham e'tiborga loyiq. Uning "Turkiy guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni", "Turkiy tillar grammatikasi" kabi darsliklari o'z vaqtida xalqimizni savodli qilish, milliy o'zlikni uyg'otish va ma'naviy tarbiyani shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etgan. Ushbu maqolada Abdulla Avloniy tomonidan yaratilgan pedagogik darsliklarning didaktik xususiyatlari, ularning metodik asoslari, milliy qadriyatlar bilan uyg'unligi va bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolayotgan jihatlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism.

Abdulla Avloniy o'zining pedagogik faoliyatida, avvalo, ta'lim va tarbiyani bir butunlikda ko'rgan. Uningcha, inson ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi uchun nafaqat ilm olish, balki axloqan yetuk bo'lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan u yaratgan darsliklar ham har tomonlama tarbiyaviy yondashuvga asoslangan.

Abdulla Avloniy – o'zbek ma'rifatparvar adibi, pedagog, jurnalist va jamoat arbobi bo'lib, o'z asarlari orqali xalqni ilm-fanga, tarbiyaga, ma'naviy yetuklikka da'vat qilgan buyuk siymodir. U XX asr boshlarida jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri bo'lib, yangi usulda ta'lim berishni, milliy uyg'onishni targ'ib qilgan. Avloniy o'zining "Birinch muallim" va "Ikkinchi muallim" nomli asarlari orqali muallimlik kasbining muqaddasligini, ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini chuqur falsafiy va ma'naviy mazmunda yoritgan.

"Birinch muallim" asari haqida

"Birinch muallim" asarida Abdulla Avloniy maktabga ilk bor qadam qo'ygan bolani kutib oluvchi, unga harf o'rgatadigan, odob-axloqni tushuntiradigan muallim obrazini yaratgan. Bu muallim bola uchun nafaqat o'qituvchi, balki hayotdagi birinchi yo'l ko'rsatuvchi, birinchi tarbiyachi hisoblanadi. Avloniy bu orqali jamiyatda ta'limning asosiy poydevori aynan maktab va birinchi muallim orqali qo'yilishini ta'kidlaydi. Asarda muallimning mehribonligi, sabr-toqati, bolaning ruhiy dunyosini tushunishi, uni o'z bolasidek asrab-avaylashi, unga bilim bilan birga tarbiya berishi chuqur tasvirlanadi.

"Ikkinchi muallim" asari haqida

"Ikkinchi muallim" esa bola biroz ulg'aygach, bilim olishda keyingi bosqichga o'tganida duch keladigan ustoz haqida. Bu muallim bolaga faqat o'qish emas, balki hayotiy bilimlar, kasb-hunar, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy boyliklar haqida saboq beradi. Asarda ikkinchi muallim orqali inson kamoloti, yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lish sari

yetaklaydigan ta'lim jarayoni yoritiladi. Avloniy muallimning faqat dars beruvchi emas, balki millat, xalq tarbiyasini yelkasiga olgan aziz zot ekanini ko'rsatadi.

“Birinchii muallim” va “Ikkinchi muallim” asarlari orqali Abdulla Avloniy yosh avlodni tarbiyalashdagi ustozlarning tutgan beqiyos o'rnini, ularning sabr-toqati, mehr-oqibati va jamiyat taraqqiyotidagi rolini ulug'laydi. Bu asarlar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan, muallimlik kasbining naqadar sharaflii va muqaddasligini anglatadi. Abdulla Avloniy o'z asarlari orqali bizni muallimlarga hurmat bilan qarashga, ularning mehnatini qadrlashga undaydi. Shu bois ham bu ikki asar har bir o'quvchi va pedagog uchun ibrat manbai bo'lib xizmat qiladi.

Avloniy darsliklarining didaktik xususiyatlari bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi:

Axloqiy-tarbiyaviy yo'nalish: “Turkiy guliston yoxud axloq” darsligida bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu asarda halollik, vatanparvarlik, rostgo'ylik, kamtarlik, mehr-shafqat, ota-onaga hurmat kabi tushunchalar turli hikoya, she'r va maqollar orqali yoritilgan. Bu orqali o'quvchilarda odob-axloq me'yorlari mustahkamlanadi.

Milliyluk va o'zlikni anglash: Avloniy o'z darsliklarida milliy qadriyatlar va tarixiy shaxslar haqida ma'lumot berib, o'quvchilar ongida o'z tarixiga, tiliga, diniga hurmat tuyg'usini shakllantirishga intilgan. Bu jihat ayniqsa “Maktab gulistoni” asarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Soddalik va tushunarliklik: Avloniy bolalarga mo'ljallangan darsliklarda o'quv materialini yengil, sodda va tushunarli tilda bayon etgan. Uning darsliklaridagi matnlar bolalarning yoshiga mos ravishda tanlangan bo'lib, ularning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlardan foydalanish: Garchi zamonaviy interfaol metodlar termin sifatida Avloniy davrida mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, u o'z asarlarida turli mashqlar, savol-javoblar, munozarali matnlar orqali o'quvchilarni faol fikrlashga undagan. Bu bugungi kundagi zamonaviy didaktikaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Abdulla Avloniy XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakili, atoqli pedagog, shoir va dramaturg sifatida tanilgan. Uning pedagogik faoliyati o'zbek milliy maktablari uchun yangi avlod darsliklarini yaratishga qaratilgan edi. Avloniyning darsliklari o'sha davr pedagogikasi uchun ilg'or hisoblangan bir qator didaktik xususiyatlarga ega edi:

Milliy ruh va vatanparvarlik tarbiyasi: Avloniy o'z darsliklarida milliy qadriyatlar, o'zbek tili va adabiyotiga muhabbat ruhini singdirishga katta e'tibor qaratgan. Uning asarlarida Turkistonning tarixi, madaniyati va buyuk siymolari haqida ma'lumotlar berilgan.

Ilmiyluk va zamonaviyluk: Avloniyning darsliklari o'sha davrdagi fan yutuqlari asosida yaratilgan bo'lib, o'quvchilarga zamonaviy bilimlarni berishga intilgan. U

geografiya, tarix, tabiiyot kabi fanlarni o'qitishda yangi metodlardan foydalanishni targ'ib qilgan.

Bolalar psixologiyasini hisobga olish: Avloniy darsliklarni bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda tuzgan. U o'quv materiallarini qiziqarli va tushunarli tarzda bayon etishga harakat qilgan.

Amaliy yo'naltirilganlik: Avloniyning darsliklarida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashqlar va topshiriqlar ham o'rin olgan. Bu o'quvchilarning olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam bergan.

Tilning soddaligi va ravonligi: Avloniy o'z darsliklarida o'quvchilar uchun tushunarli bo'lgan sodda va ravon tildan foydalangan. Bu o'quv materiallarini o'zlashtirishni osonlashtirgan.

Axloqiy tarbiya: Avloniy darsliklarida axloqiy normalar, insoniylik fazilatlarini, halollik, mehnatsevarlik kabi tushunchalarni singdirishga alohida e'tibor qaratgan.

Abdulla Avloniyning pedagogik darsliklari o'z davrida milliy maktablarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va keyingi avlod pedagoglari uchun muhim metodik manba bo'lib xizmat qilgan. Uning didaktik prinsiplari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv: Avloniy o'quvchini faqat bilim egasi sifatida emas, balki jamiyatning faol a'zosi, vatanparvar, mehnatsevar va axloqiy jihatdan pok inson sifatida tarbiyalashga harakat qilgan. Uning darsliklarida har bir o'quvchining o'z salohiyatini to'liq namoyon etishiga zamin yaratuvchi yondashuvlar mavjud.

Tarbiyani ta'limdan ustun qo'yish: Avloniy uchun eng muhim maqsad — yosh avlodni tarbiyalash edi. U ta'lim vositasi orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishishni ustuvor deb bilgan. Shu sababli, uning har bir darsligi faqat bilim emas, balki ruhiy-axloqiy ozuqa ham bo'lgan.

Yangi ochilayotgan maktablar uchun zamon talablariga javob bera oladigan o'qituvchilarni tarbiyalab yetishtirish, maktablar uchun milliy ruh ufurib turgan darslik va majmualar yaratish uchun dasturulamali bo'ladigan qo'llanmani joriy qilish o'ta muhim edi. Bu borada Abdulla Avloniy Turkiton jadidlarining rahnomasi bo'lgan Munavvarqori Abdurashidxonovning ilg'or taklif va tavsiyalariga asoslanib “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini yaratdi.

Abdulla Avloniy faoliyatida odob-axloqiy kategoriyalar haqida fikr yuritarkan, birinchi o'rinda o'quvchilarni ko'zda tutadi, ammo ularni bolalar tarbiyasiga singdirish vazifasini muallimlar zimmasiga yuklanishini alohida ta'kidlab o'tadi.

Bu borada, Abdulla Avloniyning muallimlarga: **“Turkiy guliston yoxud axloq”** asarining maqsadini to'la ifodalaydi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'b zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning

quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidir. Ta'lim ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabitur", deb tavsiya beradi.

Abdulla Avloniy ta'lim oluvchilarni mukammal odob-axloqiy tarbiyaga ega bo'lishlari uchun **"Turkiy guliston yoxud axloq"** asarini buyuk mutafakkir Shayx Muxlisiddin Sa'diy (Sheroziy) ning **"Guliston"** asariga nazira sifatida yaratilgan.

Barkamol insonni voyaga yetkazish, ularni yaxshilikka chorlash, yomonlikdan qaytarish tarbiya orqali amalga oshiriladi. Avloniyning pedagogika haqidagi ta'rifi ham hozirgi zamon ta'rifiga ancha mos keladi: "Tarbiya" – "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur".

Abdulla Avloniyning **"Turkiy guliston yoxud axloq"** asari 2 marta, 1913 va 1917-yillarda bosmadan chiqdi. Bu asarda inson axloqi, ya'ni yaxshi va yomon xulqlar haqida fikr yuritadi. Asarning boshidayoq zamondoshlar e'tibori inson hayotida tarbiyaning buyuk ahamiyatiga jalb etilgan. Inson hech qachon yomon bo'lib tug'ilmaydi yoki yaxshi odamdangina yaxshi farzand yoki yomon odamdangina yomon odam tug'ilmaydi, farzandning barkamol inson bo'lib yetishuvida tarbiyaning ahamiyati buyukligi ta'kidlanadi.

Jamiyatda farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u jamiyat, davlat ahamiyatiga ega ijtimoiy ishdir.

U shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog'liq. Abdulla Avloniy so'zlari bilan aytganda, "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir" deb alohida tarbiya masalasiga urg'u berdi.

Abdulla Avloniy ta'lim-tarbiya berishda 1909-1917 – yillar davomida maxsus maktab bolalari uchun **"Birinci muallim"**, **"Ikkinchi muallim"**, **"Turkiy guliston yoxud axloq"** va **"Maktab gulistoni"**gari ko'plab dasliklar yaratib amaliyotda tadbiiq qildi.

Abdulla Avloniyning **"Birinci muallim"** nomli asari 1917 yilda nashr qilingan. Bu darslikda alifbo o'rganilganidan so'ng o'qish uchun berilgan axloqiy hikoyalar va ibratli she'rlardan tashkil topgan. Darslik Toshkentda G'ulom Hasan Orifjonov litografiyasida bosib chiqarilgan.

Mazkur asarda 63 ta hikoya va bitta yakuniy so'z o'rnida **"Bir ikki so'z"** nomli yakuniy so'zdan iborat matnlardan tashkil topgan. Muallif asardagi hikoyalarni maktabning yuqori sinf hamda adabiyotga qiziquvchi barchaga taqdim qilinganiga bayon qilib, shu bilan o'zining to'rt qator she'ri orqali pedagogik qarashlarini bayon qilishga erishgan.

Har kun o'luram shomg'acha men g'amga giriftor,
Har shab yonaram otasha parvona kabi zor.
Hech kimsa emas bu men ahvolima voqif,

Men xastayam millatim o‘lmish nega bemor.²

Abdulla Avloniy tarbiyaning doirasini keng qamrovda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. Mohir pedagog tarbiyani bolaning sog‘lig‘i haqida alohida e‘tiborli bo‘lishni ta‘kiqlaydi. Avloniy masalaning falsafiy asosiga ko‘chadi. Jism bilan ruxning uzviy birligi haqida bayon qiladi. “Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordam bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o‘ngli tersi kabidir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo‘yub, astarini yuvub, ovora bo‘lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur” deb o‘xshtma qilish bejiz emas. Tarbiyaning o‘ta muhim masala ekanligini tushuntirishga harakat qiladi.

Abdulla Avloniy **“Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan pand-nasihat mazmunidagi** hikoyalar mazmuni bolalarni axloqiy tarbiyani o‘zida yoshlikdan singdirib borushni targ‘ib qiladi.

Xususan, **“Axloq”** nomli maqolada “Insonni yaxshilikg ‘a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyeur. Axloq ilmni o‘qub, bilub amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanin, jinob Haq na uchun xalq qilganin. Yer yuzida nima ish qilmak uchun yurgan bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qinnatini bilmas. O‘z aybini bilub, iqror qilub tuzatmakg ‘a sa ‘y va ko‘shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidir. Rasul akram nabiiy muhtaram afandimiz: “Mezon tarozusiga qo‘yiladurgan amallarning ichida yaxshi xulqdan og ‘irroq i yo‘qdur. Mo‘min banda yaxshi xulq sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro‘za tutub ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar”, -demishlar” deya bayon qiladi.

Shu bilan suhbu bayonotni she‘riy parchalar bilan izohlashga harakat qiladi.

So‘ylasang so‘yla yaxshi so‘zlardan,
Yo‘qsa jim turmoqing erur yaxshi.
O‘ylasang yaxshi fikrlar o‘yla,
Yo‘qsa gung bo‘lmoqing erur yaxshi.
Ishlasang ishla yxshi ishlarni,
Yo‘qsa bekorligi erur yaxshi.

Ayniqsa, **“Tarbiya”** nomli maqolada bolalarning tarbiyalashda eng muhim qirralarni ko‘rsatishga harakat qilinadi.

Xususan, **“Tarbiya - “Pedagogiya”**, ya‘ni bola tarbiyasining fani demakdur. Imi axloning asosi tarbiya o‘ldug ‘ndan shul xususida bir oz so‘z so‘ylaymiz. Bolaning salomati va saodat uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan

² A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 1917. 1-bet

maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xalqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga **“yaxshi xulq”** degan davoni ichidan, **“poklik”** degan davoni ustidan berub, katta qilmoqg 'i lozimdur”, deya tarbiya olishda eng avvalo sog 'liq salomatlikka alohida e 'tibor berish masalasini qo'yadi. Bu borada bolalarni sog 'lig 'i borasida **“Badan tarbiya”** nomli maqolaning alohida orni mavjud.

“Badanning salomat va quvvatli bo'lmog 'i insonga tng kerakli narsadur. Chunki, o'qumoq, o'qumoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar...”³ deb ta 'kiqlaydi.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asarida **“Yaxshi xulqlar”** va **“Yomon xulqlar”** tasnif qilib o'qituvchi va o'quvchiga odob-axloq to'g'risida ta'lim beradi.

“Yaxshi xulqlar” maqolasida **“Yaxshi xulq:** bir qismi o'z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshu ishlatmak uchun kerakli bo'lgan yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqiyosi nafs, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi loson, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdur” deya, har bir yaxshi xulqlarga kirgan fazilatlariga izoh berib o'tadi. Shu bilan birga inson yaxsh xulq egasi bo'lishi lozimligi to'g'risida pand-nasihat qiladi.

Yaxshi birla yursa, har kim maqsadi hosil bo'lur,
Yursa nadonlar ila, kun borib qotil bo'lur.
Kattalar qilgan nasihatni kichikalr olmasa,
Oqibat xulqi buzuk bir beadab johil bo'lur.

Shu bilan birga **“Yomon xulqlar”** haqida ham tasnif berib shunday bayon qiladi: “Insonlarni saodat abadiyatdan mahrum qiladigan, janob Haq qoshida va xalq nazrida mazmum, hayoti jovidonimiz uchun masmum bo'lgan axloqi zamimalar: g'azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, rahovat, anoniyat, adovat, namimat, g'iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, tama, zulmdur.”⁴

Ko'rinib turibdiki, mazkur asar boshidan oxirigacha kitobxonga didaktik xususiyatlar to'g'risida bayon qiladi. Bu haqida asar yakunida Abdulla Avloniy quyidagicha izoh qoldirib ham o'tadi:

“Ban bu asari nochizonami bir necha muallim brodarlarining iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqg'a g'ayrat va jasorat qilmish edim. Alhamdullo va mina ikkinchi tab 'ana-da muvaffaq o'ldum. Chunki Turkiston maktablarida o'z shevamizda yozilmish

³ A.Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq.Toshkent,1917.3-bet

⁴ A.Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq.Toshkent,1917.25-bet

mukammal “**Axloq**” kitobining yo‘qligi afroqi millatning shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanlig‘i o‘zum muallimlar jumlasida o‘ldigimdan manga ham ochiq ma‘lum o‘ldi. Shunning uchun ko‘p vaqtlar tajriba so‘gida adibi muhtaram Shayx Sa‘diy usulida yozmoqni, garchi o‘g‘ir ish bo‘lsa ham, o‘zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq bu kamchilikni oradan ko‘tarmakni munosib ko‘rdim.

Va shul maqsadga mabni har bir so‘zning oxiriga, ikki-uch band she‘r ham yozdim va bu yozgan she‘rimga orasida ba‘zi arabiy, forsiy she‘rlarnig tarjima va mazmuni ham ko‘rilur. Maorifparvar muallim birodarlarim meni bu asari ojizomamni iltifotsiz qoldurmay, bu xizmati nochizonamni ko‘zdan kechurub va bundan so‘ng ham banim qalamim ila nashr o‘lijanbb kitoblarni lutfan maydoni ta‘lima qo‘ymoq ila barobar tabiiy o‘lan nuqsonlarini tanbeh va tanqid qilmakda himmati maorifparvaronalarini bandadan darig‘ tutmasalar edi”.

Xulosa

Abdulla Avloniy yaratgan pedagogik darsliklar o‘zining didaktik mazmuni, milliylikka asoslangan tarbiyaviy yondashuvi va shaxsga yo‘naltirilgan metodlari bilan bugungi ta‘lim tizimi uchun ham dolzarbdir. U tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv materiallari bolalarda nafaqat bilim, balki ma‘naviyat, axloq, ijtimoiy mas‘uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, Avloniy merosi har doim o‘rganishga, targ‘ib etishga va amaliyotda qo‘llashga loyiq bo‘lgan bebaho boylikdir. Uning pedagogik qarashlarini chuqur o‘rganish va ularni zamonaviy dars jarayonlariga moslashtirish yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalash yo‘lida muhim qadamlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: «Fan», 1992.
2. Avloniy A. Turkiy tillar grammatikasi. – Toshkent: «Sharq», 2006.
3. G‘oyibnazarov S. Abdulla Avloniy va o‘zbek pedagogik tafakkuri. – Toshkent: O‘zRFA nashriyoti, 2005.
4. Jo‘raqulov A. Abdulla Avloniy – ma‘rifatparvar pedagog // “Ta‘lim va tarbiya” jurnali. – 2018. – №2. – B. 45–50.
5. Abdullayeva, V. (2023). XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONDA TA‘LIM JARAYONNI YUZAGA KELISHI VA DARSЛИKLAR. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 841-843.
6. Abdullayeva, V. (2023). MAKTABGACHA TA‘LIM YOSHIDAGI BOLALARNING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 888-891
7. Quronovna, V. A. (2023). YUSUF XOS HOJIBING “QUTADG‘U BILIG” ASAR MATNIDA FRAZEOLGIK BIRLIKЛАRNING QO‘LLANILISH SINONIMIYALARI. Международный журнал научных исследователей, 3(2)..

8. Quronovna, A. V. (2024). The Sematico-Paradigmatic Structure of Phraseological Units in the Work” Qutadgu Bilig. International Journal of Scientific Trends, 3(5), 27-34.
9. Quronovna, A. V. (2023). YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARINING O‘RGANILISHI HAMDA ASARDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 174-179.
10. Abdullayeva, V. Q. (2023). YUSUF HOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARINING TIL XUSUSIYATLARI, UNDA FRAZEOLOGIK IBORALARNI QO‘LLANILISHI TADQIQI. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 3(2).